



# TARAKKIYAT TADQIQOTLARI | ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ DEVELOPMENT STUDIES

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНЛАР | НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКИЕ КОНФЕРЕНЦИИ  
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCES

Volume II, Issue-23, (November) 2024

Journal homepage: <https://inashr.uz/index.php/rid>

**MUMINOV Azizbek Boxodir o'g'li**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy*

*Universitet tarix fakulteti*

*2-kurs magistranti*

## JADIDLAR NIGOHIDA TURKISTON AN'ANAVIY TA'LIM TIZIMI

Jadidlar ziyoli va bilimdon kishilar edi. Ularning ko'pchiligi dunyo bo'ylab sayohat qilgan, boshqa mamlakatlarning ta'lim tizimini o'rganagan, olimlar bilan uchrashgan, tajriba almashgan. Ular Turkiston yoshlari eng yangi ilmlarni o'rganishni, yaxshi muhitda ta'lim olishni istashardi. Shu sababli, ular Turkistondagi mahalliy ta'lim tizimidagi kamchiliklarni ko'rib chiqib, ularni takomillashtirish g'oyasini ilgari surdilar. Ushbu tezisdagi jadidlar tomonidan mahalliy ta'lim tizimidagi kamchiliklarning o'rganilishi va bu kamchiliklar yuzasidan jadidlarning matbuotdagi fikr va qarashlariga e'tibor qaratiladi.

Jadid maktablarining tarafdorlari eski usulning kamchiliklarini, yangi usulning ahamiyatini ko'rsatish, maktablarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitishga keng o'rin ajratishni yo'lga qo'yish maqsadida matbuotdan foydalanishdi. Chunki o'sha vaqtda gazeta va jurnallar xalq orasida targ'ibot vazifasini o'tovchi yagona vosita edi. Jadid-qadim nizosi va ularni bartaraf etishga oid maqolalar Turkiston va Buxoro matbuot sahifalarida ham berib borildi.

“Turon”, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Farg'ona” va boshqa gazetalar hamda “Al-Isloh” va “Oyna” kabi jurnallarda e'lon qilingan maqolalarda mamlakat taraqqiyoti uchun ilm-fanga alohida e'tibor qaratish lozimligi, eskicha usulda dars berishdan voz kechib, zamon talabiga javob beradigan ta'lim muassasalarida dunyoviy fanlarga keng o'rin ajratish kerakligi targ'ib qilindi [1].

Jumladan, “Sadoi Turkiston” gazetasi “Bizning bu jaridamiz Turkiston maktablarining ahvolini isloh va huquqini mudofaa maqsadi-la chiqarilganlig'i uchun bunda eng ko'b bahs qilinadurg'on masala va eng muhim sanaladurg'on maqola shul maktab to'g'risida bo'lur” deya o'z yo'nalishini belgilab olgan edi [2].

Jadid matbuotida mahalliy ta'lim tizimiga bag'ishlangan maqolalar juda ko'p e'lon qilingan. Biz quyida ularning ayrimlarini ko'rib chiqish bilan cheklanamiz. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, jadidlar orasida eski maktablar xususida ikki xil qarash mavjud bo'lgan. Masalan, birinchi guruh ruhdagi jadidlardan Mahmudxo'ja Behbudiy va Hoji Mu'inlar eski maktablarning o'qituvchilarini saqlab qolgan holda isloh etishlik mumkin deb hisoblagan bo'lsalar, ikkinchi guruh nisbatan ruhd bo'lib, ulardan biri G'oziy Yunus bunday turdagi maktablarni yangilab bo'lmasligini, ularni faqatgina yopib tashlashlik lozimligini ta'kidlagan [3].

Is'hoqxon Ibratning ham fikrlarini shunday ruhd deyish mumkin. Gap shundaki, 1907-yili “Turkiston viloyatining gazetasi”da eski maktablar tarafdori Mulla Husanxo'ja eshon bilan Ishoqxon Ibrat o'rtasida keskin munozara bo'lib o'tadi. Mulla Husanxo'ja domla eski maktablarni yengil-yelpi isloh qilish shiori bilan chiqadi, Ibrat esa eski maktablarni tubdan o'zgartirish, ular o'rnida zamon talablariga javob beradigan maktablar ochish tarafdori bo'ladi. Shu munosabat bilan Ibrat 1907-yilda Munavvar qorining taklifiga binoan Toshkentga keladi, uning maktabidagi bitirish imtihonlarida qatnashadi, olgan taassurotlarini maqolada bayon etadi.

Uning 1907-yilda “Turkiston viloyatining gazetisi”ning 72-sonida e’lon qilingan “Eski maktablar xususida” nomli maqolasidagi ushbu jumlar ham uning eski maktablar xususidagi qarashlari keskin bo’lganidan dalolat beradi: “Bolalarni eski maktablar ila jamoalarga taqsim qilib, kelish-ketish, kaltak va qamchi mas’alalarin isloh qilmoq-da albatta lozimdur. Lekin o’qulajak kitoblar -mazkur eski kitoblar, o’qulajak domlari-da -eski domlari, maktablari-da -eski hasharot uyalari bo’lduqinda bu mas’alalar ming marotabalar isloh etilsa-da, bekor, behudadir. Agar vijdon, insof ila muhokama qilsak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilgan yangi usul domlarning himoyasida bo’lgan maktablar vazh etmaki lozimdur” [4].

Jadidlardan Behbudiy [5], Munavvar qori [6], Is’hoqxon Ibrat [7], M.Sh.Muxtoriy [8], G’ozi Yunus [9], Abdurauf Fitrat [10], Abdulla Qodiriy [11], Botu [12] va boshqalar o’z asarlarida mahalliy ta’limdagi ahvolni ta’riflab, barchani ogoh bo’lishga, ilm olishga chaqiradi.

Mahalliy ziyolilar Turkistondagi o’quv tizimning barcha bosqichlarini tubdan yangilash zarur va shart ekanligini gazeta sahifalarida chop etilgan maqolalarda isbotlab berishgan. O’sha paytlarda yangi usul maktablari yo’lga tushayotgan bo’lsa ham, yangi tartibdagi madrasalar yo’q edi. Shuning uchun ham “Sadoi Turkiston” bu muammoni kechiktirmay hal etish kerakligini xalqqa anglatishni o’zining burchi deb biladi. “Hozirgi madrasalarimizda o’quv” sarlavhali maqolada Samarqand, Buxoro, Andijon kabi yirik shaharlardagi madrasalarning o’quv tizimini keskin tanqid qiladi. Gazetaning 1914-yil 20-iyun sonida bosilgan ushbu maqola Turkistonning ertasi bo’lgan yoshlar birgina din ilmi bilan cheklanib qolayotganligini chuqur nadomat bilan bayon qiladi [13].

Turkiston mahalliy ta’lim tizimidagi ayanchli ahvol va kamchiliklar haqida ko’plab namoyandalari maqolalarini va ulardagi sanab o’tilgan muammolarni keltirish mumkin. Xulosa sifatida shuni aniq aytish mumkinki, bu davrda Turkiston mahalliy ta’lim tizimidagi ahvol o’ta ayanchli ahvolga tushib qolgan edi. Jadid namoyandalari esa bu ahvolga jim qarab turolmas edi, shuning uchun ular matbuotda, mahalliy ta’limni isloh qilish g’oyasini ilgari surishdi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Жамолова Д.М. Бухоро амирлигида жадидлар ва қадимчилар фаолияти (XIX аср охири -XX аср бошлари): тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)...дис. автореф. - Тошкент, 2019. -18-19 б.
2. Ҳалимова С.А. Убайдулла Асадуллаҳўжаев ва “Садои Туркистон”. Монография. - Тошкент: “Университет”, 2021. –46 б.
3. Alijonov M.B. XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy jarayonlarda G‘oziy Yunusning tutgan o‘rni: tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dis.avtoref. -Toshkent, 2023. - 15 b.
4. Ибрат И.Т. Танланган асарлар / масъул муҳаррир: Б.Қосимов. -Тошкент: Маънавият, 2005. -155 б.
5. Бехбудий М. Танланган асарлар // Тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар: Б. Қосимов. - Тошкент: Маънавият, 2006. -50 б.
6. Odob-axloq kitobi / Jadid namoyandalari: M.Behbudiy va boshq. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. -162-167-betlar.
7. Ибрат И.Т. Танланган асарлар / масъул муҳаррир: Б.Қосимов. -Тошкент: Маънавият, 2005. -155 б.
8. M.Sh. Muxtoriy. Turkiston xabarlar: Matbuot // Tarjimon: S.Nurmuhamedov. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1918-yil. 29-o‘ktabr.
9. G‘ozi Yunus. Eski maktablar haqinda // Tarjimon: A.Yo‘ldoshev. “Ishtirokiyun” gazetasi. 1919-yil 9-iyul.
10. Фитрат А. Танланган асарлар: 6 жилдлик. 5-жилд. -Тошкент: Маънавият, 2010. -63 б.
11. Қодирий А. Танланган асарлар / нашрга тайёрловчи Х.Қодирий. . -Тошкент: Sharq, 2014. - 504 б.
12. Ходиев М.Б. Танланган асарлар. -Тошкент: Шарқ, 2004. - 36-37 б.
13. Ҳалимова С.А. Убайдулла Асадуллаҳўжаев ва “Садои Туркистон”. Монография. - Тошкент: “Университет”, 2021. –54 б.